

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

DUSATOV BOTIR ESHDAVLAT O'G'LI

**SHAHAR TURAR-JOY HUDUDLARIDAGI BINOLARDAN
YO'QOTILADIGAN ISSIQLIK ENERGIYASINI TEJASH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**18.00.02 – «Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi» (texnika)
05.09.01 – «Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar»**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025 yil

UO‘K: 711.113:711.168:728.1:679.743.2:697.1

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (PhD) философии по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Dusatov Botir Eshdavlat o‘g‘li

Shahar turar-joy hududlaridagi binolardan yo‘qotiladigan issiqlik energiyasini tejash
usullarini takomillashtirish.....3

Дусатов Ботир Эшдавлат угли

Усовершенствование методов энергосбережения потери тепловой энергии в
зданиях на городских жилых территориях.....25

Dusatov Botir Eshdavlat ugli

Improving energy saving methods for thermal energy loss in buildings in urban
residential areas.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

DUSATOV BOTIR ESHDAVLAT O'G'LI

**SHAHAR TURAR-JOY HUDUDLARIDAGI BINOLARDAN
YO'QOTILADIGAN ISSIQLIK ENERGIYASINI TEJASH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**18.00.02 – «Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi» (texnika)
05.09.01 – «Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar»**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025 yil

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5185 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume). Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://taqu.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>) «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xotamov Asadulla Toshtemirovich
texnika fanlari doktori, professor

Maxmudov Said Maxmudovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Bahrom Toshpo'latovich,
texnika fanlari doktori, professor

Xasanov Azamat Ozodovich,
arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

“O‘zshaharsozlikLITI” DM

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.26/04.07.2023.T.11.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «10» iyun soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. Tel.: +998 (55) 508 02 56. e-mail: devon@taqu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 152 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Yangi shahar ko'chasi, 9-uy. tel.: +998 (71) 142 65 85).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «26 may» kuni tarqatildi.

(2025 yil «1» maydagi № 1(6)/2025-3-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.X. Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, arx.f.d., dotsent

F.A. Abdixalilov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

A.S. Yuvmitov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yildan yilga energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi fonida butun jahon iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq holda binolarning energiya samaradorligini oshirish, rivojlanishiga, isitish uchun sarflanadigan energiyadan oqilona foydalanishga va uni tejash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda, butun dunyo bo‘ylab «...energiyadan jami foydalanish 14 400 million tonna neft ekvivalentiga (Mt.n.e) yetdi, bu 2000 yilga nisbatan 45 foizga va 1900 yilga nisbatan 16 baravar yuqoridir. 2022 yilda issiqlik energiyasi jahon umumiy energiya iste‘molining qariyb yarmini ya’ni CO₂ ning 38 foizini tashkil etgan. 2023–2028 yillar davomida issiqlik energiyasi iste‘moli 40 foizdan oshishi kutilmoqda, shu tufayli qurilish sohasida, yangi energiya samarador yechimlarni uzluksiz rivojlanishiga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda binolarning energiya samaradorligini ta’minlashda, ularni pasportlashtirish, energiya samaradorlik sertifikatlarini joriy etish, taqdim etish, energiya auditdan o‘tkazishni takomillashtirish, energiya samarador konstruktiv yechimlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, turar joy massivlaridagi binolarning energiya tejamkorligini ta’minlash, ulardagi konstruksiyalaridan yo‘qotilayotgan issiqlik oqimini qisqartirish, bu bilan issiqlik ishlab chiqarish bilan bo‘lgan atmosferaga tashlanayotgan is gazi miqdorini kamaytirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, turar joy massivlaridagi binolarni energiya auditdan o‘tkazish, sertifikatlash hamda energiya samaradorlik bo‘yicha monitoring tizimini yaratish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish natijasida turar joy massivlaridagi binolarning energiya samaradorligini monitoring qilish tizimini joriy etish zarurati kuzatilmoqda. Shuning bilan birgalikda, 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi jumladan “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha ob‘ektlari energiya samaradorligini oshirish uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga asosan bino va inshootlar qurilishida energiya tejamkor materiallarni, shu jumladan avtoklav gaz-betonli konstruksiyalar va yirik fibrobonli panellarni qo‘llash bo‘yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha vazifalari belgilangan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida yangi tashqi to‘siq konstruksiyalarni issiqlik himoyasini oshirish va mavjudlarini energiya tejamkorlik talablariga mos holda rekonstruksiya qilish, jumladan ulardan chiqib ketuvchi energiya sarfini, issiqlik himoya materiallari va energiya tejamkor yangi konstruktiv yechimlarni qo‘llash orqali qisqartirish hamda binolarning energiya auditdan o‘tkazish, ularga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

energetik pasportlash, sertifikatlash tizimini joriy etish bilan energetik monitoring tizimini joriy etish bugungi kunda muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2022 yil 21-fevraldagi “Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-139-son, 2019 yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4422-son, 2020 yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i - energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 19.10.2024 yildagi “Yoqilg‘i-energetika resurslari iste‘molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste‘molini energiya auditdan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida”gi 690-son qarori, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining II - «Energetika, energiya va resurs tejamkorligi» ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Binolarni energiya samaradorligini ta‘minlash, ularni pasportlashtirish, energiya auditdan o‘tkazish hamda sertifikatlashtirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan Yevropa va boshqa mintaqalar miqyosida Wolfgang Fayst, Bo Adamson, Ebenezer Xovard, Le Korbyuze, Makxarg, Roberts Riekstiņš, Ivars Strautmanis, Lingjiang Huang, Zhengdong Huang, Neveen Hamza, P. F. G.Banfill, A.D.Peacock, Valeria Pracchi, Eline Himpe, Leen Trappers, Jelle Laverge, WimDebacker, Marc Delghust, Arnold Janssens va boshqa ko‘plab olimlarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari MDX miqyosida K.Ф.Фокин, Ю.А.Матросов, Л.А.Опарина, Ю.А.Табунщиков, М.М.Бродач, Н.В.Шилкин, Л.Данилевский Ю.Н.Казаков, О.А.Тимощук, А.С.Горшков, Л.А.Опарина, А.В.Захаров, Е.Н.Сычкина, А.Б.Пономарев olimlar shular jumlasidan.

Mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilgan ishlar va yangiliklar dunyo miqyosida energiyaga bo‘lgan extiyojning ortishi bu soxani yanada rivojlantirish va yangi tizimni joriy etishni talab etmoqda. Hozirgi kunda bu sohani rivojlantirishga o‘z xissalarini ko‘shayotgan ilmiy tadqiqotchi olimlardan S.A.Xodjaev, M.S. Maxmudov, M.M. Zoxidov, Y.V. Shipachova, Y.K. Rashidov, R.A. Kuchkarov, M.R. Ismanxodjaeva, R.Y. N.Norov, R.Y. Marakaev, R.A. Yusupov, R.R. Kadirov shular jumlasidan. Turar joy maskanlarida binolarning energiya samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatuvchi ularni ufqqa nisbatan optimal joylashtirish,

bunda binolarning o‘zaro joylashuviga ta’sir etuvchi tabiiy, texnogen va antropogen omillar I.S.Shukurov, A.T.Xotamov, X.F.Allaberganovlar tomonidan o‘rganilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti, Texnik me’yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot institutida SHNQ 1.03.03-23 “Qurilish ob’ektlarini loyihalashtirish” hamda SHNQ 2.03.15-22 “Energiya tejamkor devorbop to’suvchi konstruksiyalar. Binolar qurilishida avtoklavli silikatli gazobeton konstruksiyalarini qo‘llash” shaharsozlik normalari va qoidalari ishlab chiqish asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi shahar turar-joy massivlaridagi binolarning issiqlik energiyasini nazariy va eksperimental tadqiq etish hamda energiya sarfini qisqartirish orqali atmosferega tashlanayotgan CO₂ ni kamaytirish, shuningdek binolarning energiya samaradorligini nazorat qilish bo‘yicha monitoring tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turar joy massivlaridagi binolarning energiya samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi amaldagi shaharsozlik normalari va qoidalari talablarini hamda nazariy va amaliy tadqiqot natijalarini tanqidiy o‘rganish va tahlil qilish;

Toshkent shahridagi turar joy maskanidagi ko‘p kvartirali uylarning issiqlik energiya sarfi miqdorlarini binolarning orientatsiyasiga nisbatan eksperimental tadqiq etish;

ko‘p kvartirali uylarning amaldagi issiqlik energiya sarfi miqdorlarini hamda issiqlik himoyasi darajalarini nazariy jihatdan tadqiq etish;

turar joy massivlaridagi binolarning issiqlik energiya sarfini qisqartirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

binolarning energetik pasportlash, sertifikatlash asosida energetik monitoring tizimi modelini ishlab chiqish.

turar joy massivlaridagi binolarning issiqlik energiya sarfini qisqartirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularning texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslash.

Tadqiqot ob’ekti sifatida Toshkent shahridagi turar joy binolari olingan.

Tadqiqot predmetini turar joy massivlaridagi binolardan yo‘qotilayotgan issiqlik energiyasini tejash hamda CO₂ ni kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida issiqlik oqimi miqdorini va issiqlik himoyasi darajalarining eng maqbulini aniqlash, issiqlik energiyasini tejash hamda quyosh panellarini qo‘llash orqali CO₂ ni qisqartirish, shuningdek vizual, diagnostik hamda eksperimental texnik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turar joy massivlaridagi binolarning energiya samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi qurilishda issiqlik texnikasi kabi shaharsozlik normalari va qoidalarining issiqlik himoyasi darjalari birlashtirilib, yagona talablarga keltirilgan holda takomillashtirilgan;

Toshkent shahridagi ko‘p kvartirali uylarning issiqlik energiyasi sarfi miqdori turar-joy maskani kesimida binolarning orientatsiyasiga nisbatan eksperimental usulda real vaqt rejimidagi gistogrammalar yordamida aniqlash orqali konstruktiv

elementlardan yo‘qotilayotgan issiqlik miqdori hamda optimal issiqlik himoyasi tanlangan;

turar joy massivlaridagi binolardan yo‘qotilayotgan issiqlik sarfi miqdorini, normativ ko‘rsatkichlarni qayta belgilash orqali ularni 40% ga qisqartirishga erishish mumkinligi optimal konstruktiv yechimlar hisobga olinib asoslangan;

binolar uchun energiya samardorlik pasportidagi energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari qisqartirish hisobiga takomillashtirilib, energiya auditdan o‘tkazish tartibi, energiya samardorlik sertifikatiga asoslangan turar joy massivlarida energiyani tejashni monitoring tizimining modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent shahri ko‘p kvartirali uylarning amaldagi issiqlik energiyasi sarfi miqdori aniqlanib, tabiiy gaz sarfini qisqartirish bo‘yicha iqtisodiy tahlillar qilingan, iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqilgan;

Toshkent shahridagi Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasida joylashgan turar joy massividagi ko‘p kvartirali uylardan sarflanayotgan issiqlik energiyasi hisobidan atmosferaga ajratilayotgan issiqxona gazlari miqdori aniqlangan;

shaharsozlik normalari va qoidalaridagi issiqlik himoyasi darajasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

iqtisod qilingan energiya miqdori hisobiga samardor chora-tadbirlarga sarflangan pul mablag‘larini o‘zini oqlash imkoniyati va muddatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o‘z aksini topgan umumiy xulosalar shahar turar joy hududidagi binolardan yo‘qotiladigan issiqlik energiyasini tejash usullarini takomillashtirish uchun issiqlik energiyasi hamda issiqlik himoyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar hisobiy va eksperimental natijalarning o‘zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaharsozlik normalari va qoidalaridagi bino konstruksiyalarining issiqlik himoyasi darajalaridagi o‘zaro bog‘liqliklarini korrelyatsiyalash natijasida optimal issiqlik himoyasi darajasi aniqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turar joy massivlaridagi binolarning joylashuviga ko‘ra fasad qismidan yo‘qotiladigan issiqlik energiyasi sarfi miqdori aniqlanishi shuningdek, ushbu binolarda energiyani tejash natijasida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini qisqartirishga erishilganligi nazariy hisob kitoblar orqali aniqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shahar turar joy hududlaridagi binolardan yo‘qotiladigan issiqlik energiyasini tejash usullarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

turar joy massivlaridagi binolarning energiya samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi qurilishda issiqlik texnikasi kabi shaharsozlik normalari va qoidalarining issiqlik himoyasi darjalari birlashtirilib, yagona talablarga keltirilgan holda takomillashtirilganligiga oid takliflar SHNQ 2.03.15-22 “Energiya tejamkor devorbop to‘suvcchi konstruksiyalar. Binolar qurilishida avtoklavli silikatli gazobeton konstruksiyalarini qo‘llash” bo‘yicha shaharsozlik normalari va qoidalarini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va

uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi 11.02.2025 y. № 20-06/1657-sonli ma'lumotnoma). Natijada binolarning konstruktiv yechimlarini takomillashtirishga erishilgan;

Toshkent shahridagi ko'p kvartirali uylarning issiqlik energiyasi sarfi miqdori turar-joy maskani kesimida binolarning orientatsiyasiga nisbatan eksperimental usulda real vaqt rejimidagi gistogrammalar yordamida aniqlash orqali konstruktiv elementlardan yo'qotilayotgan issiqlik miqdori hamda optimal issiqlik himoyasi tanlangashga oid takliflar SHNQ 1.03.03-23 "Qurilish ob'ektlarini loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalarining 4-ilovasida keltirilgan "Bino (inshoot) energetik pasportining namunaviy shakli" takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi 11.02.2025 y. № 20-06/1657-sonli ma'lumotnoma). Natijida Bino (inshoot) energetik pasporti qisqartirilib, takomillashtirishga erishilgan;

turar joy massivlaridagi binolardan yo'qotilayotgan issiqlik sarfi miqdorini, normativ ko'rsatkichlarni qayta belgilash orqali ularni 40% ga qisqartirishga erishish mumkinligi optimal konstruktiv yechimlar hisobga olinib asoslangan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi 06.03.2025 y. № 34-06/2587-sonli ma'lumotnoma). Natijada turar joy maskanidagi binolarni issiqlik darajasini ta'minlash orqali yillik 4147,48 MVt soat issiqlik energiyasini tejash yoki tom qismida qo'yosh panellari o'rnatilishi natijasida yiliga 2174,0 MVt soat energiya ishlab chiqarishi, shuningdek yiliga 7577,83 tonna CO₂ ni qisqartirilishiga erishilgan;

binolar uchun energiya samardorlik pasportidagi energiya samaradorligi ko'rsatkichlari qisqartirish hisobiga takomillashtirilib, energiya auditdan o'tkazish tartibi, energiya samardorlik sertifikatiga asoslangan turar joy massivlarida energiyani tejashni monitoring tizimining modeli ishlab chiqishda qo'llanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi 11.02.2025 y. № 20-06/1657-sonli ma'lumotnoma). Natijada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumat farmon va qarorlari ijrosini ta'minlashda muayyan darajada hissa qo'shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shulardan 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda hamda 1 ta xorijiy monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirishda o'tkazilgan dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan,

tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish ro‘yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

«**Shahar turar joy hududlaridagi energiya samarador binolar**» nomli birinchi bobida energiya samarador shahar va binolarning paydo bo‘lish tendensiyalari, shahar turar joy hududlaridagi binolarning energiya tejamkorligiga talablar, bunda binolarning issiqlik energiyasini me‘yorlash bo‘yicha jahon tajribasi, energiya samaradorligi hamda ularning sarfi bo‘yicha klassifikatsiyasi shuningdek, energiya tejamkor shahar turar joy hududlarining paydo bo‘lishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Shahar turar joy hududlaridagi binolardan yo‘qotiladigan issiqlik energiyasi sarfini tadqiq etish**» nomli ikkinchi bobida shahar turar joy hududlaridagi tadqiqot ob‘ekti va uning konstruksiyalari, binolardan yo‘qotiladigan issiqlik energiyasi sarfini tadqiq qilish hamda aniqlash bo‘yicha amaliy tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqotni amalga oshirish uchun dastaval Toshkent shahridagi markaziy isitish tizimi bilan bog‘liq muammoli hududlar aniqlab olindi (1-rasmda keltirilgan).



1-rasm. Toshkent shahridagi markaziy isitish tizimi bilan bog‘liq muammoli hududlar

Tadqiqot uchun Toshkent shahridagi, Uchtepa tumani, Foziltepa ko'chasida joylashgan 15-mavzedagi markaziy issiqlik bilan ta'minlanadigan 8-ta o'rta qavatli turar joy tanlab olindi. Ushbu mazedagi 16, 17, 21, 22, 23, 24, 25, 26-uylarning amaldagi issiq energiyasi yo'qotilishini aniqlash bo'yicha ishlar olib borildi (2-rasmlar).



2-rasm. Uchtepa tumani, Foziltepa ko'chasi 17, 21, 24, 26-uylarning joylashishi


Tadqiqot obyektlarining gabarit, konstruktiv elementlarining o'lchamlari quyidagilardan tashkil topgan bo'lib, soni 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Tadqiqot obyekti va undagi konstruktiv elementlarining o'lchamlari

№	Parametrlar		Ufqqa qarab joylashishi	
	Nomi	birligi	janubiy-sharqqa qaragan 16, 22, 23, 25 uylar	shimoliy-sharqqa qaragan 17, 21, 24 26 uylar
1	Eni	m	14,5	
2	Bo'yi		120	60
3	Balandligi		20	
4	Devor	m ²	3976	1988
5	Pol		1509,76	754,8
6	Tom		201,6	100,8
7	Eshik		1404	702
8	Deraza			


Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Foziltepa ko'chasida joylashgan 15-mavzedagi turar joy binolarining tadqiqotlari 2023 yil 20 yanvarda olib borilgan. Tadqiqot olib borilgan vaqtdagi tashqi havo harorati $+1\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $+1,5\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha, bulutli, obyektlarning to'rt tomondan tarzlari teplovizorlar yordamida o'lchanib, quyidagi natijalar olindi (3-10-rasmlar).




3-rasm. Foziltepa ko'chasi 16-uyning shimoliy - g'arb tomondan teplovizion gistogrammasi




4-rasm. Foziltepa ko'chasi 17-uyning g'arb tomondan teplovizion gistogrammasi




5-rasm. Foziltepa ko'chasi 21-uyning sharq tomondan teplovizion gistogrammasi




6-rasm. Foziltepa ko‘chasi 22-uyning sharq tomondan teplovizion gistogrammasi




7-rasm. Foziltepa ko‘chasi 23-uyning shimol tomondan teplovizion gistogrammasi



8-rasm. Foziltepa ko‘chasi 24-uyning sharq tomondan teplovizion gistogrammasi



9-rasm. Foziltepa ko‘chasi 25-uyning shimoliy-g‘arb tomondan teplovizion gistogrammasi



10-rasm. Foziltepa ko‘chasi 26-uyning sharq tomondan teplovizion gistogrammasi

Olingan natijalar asosida, tashqi to'siq devor konstruksiyasidan chiqib ketayotgan issiqlik oqimi Q ni quyidagi (1) formula orqali aniqlab olinadi.

$$Q = k \cdot (t_i - t_t) \cdot F \cdot z, \quad (1)$$

Bu yerda: k – tashqi to'siq devor konstruksiyasining issiqlik uzatish koeffitsienti u λ/δ ga yoki $1/R_K$ ga teng $W/m^2\text{°C}$ shuningdek ushbu ko'rsatkich xorijiy texnik normativlarga ko'ra *u-value* deb yuritiladi; t_i – tashqi havo harorati °C ; t_t – ichki havo harorati °C ; F – to'siq konstruksiyasining yuzasi m^2 ; z – issiqlik oqimining davomiyligi vaqtda soat.

Amaldagi issiqlik sarfi Q_{um}^I ni aniqlashdan oldin normativ sarflarni aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi, bunda quyidagi (2) formula yordamida aniqlanadi.

$$Q_{um}^I = Q_{dv} + Q_T + Q_E + Q_p + Q_{dr} + Q_{h.a.}, \quad (2)$$

Bu yerda: Q_{dv} – devor konstruksiyasidan yo'qotiladigan issiqlik energiyasi W/m^2 ; Q_p – pol konstruksiyasidan yo'qotiladigan issiqlik energiyasi W/m^2 ; Q_t – tom konstruksiyasidan yo'qotiladigan issiqlik energiyasi W/m^2 ; Q_e – eshikdan yo'qotiladigan issiqlik energiyasi W/m^2 ; Q_{dr} – derazadan yo'qotiladigan issiqlik energiyasi W/m^2 ; $Q_{h.a.}$ – havo almashinishidan yo'qotiladigan issiqlik energiyasi W/m^2 . Bunda, $Q_{h.a.}$ bunda quyidagi (13) formula orqali aniqlanadi.

$$Q_{h.a.} = \frac{A_p \cdot V \cdot z \cdot h \cdot N_q}{R_{h.a.}}, \quad (3)$$

Bu yerda: A_p – pol yuzasi m^2 ; V – almashtiriladigan havo hajmi SHNQ 2.08.01-24 ning 10-jadvaliga muvofiq olinadi $1 m^2$ pol yuzasiga $4 m^3/h$; z – isitish mavsumi; h – sutkalik soat miqdori ya'ni 24 soat; H_q – bino qavatlar soni. $R_{h.a.}$ – SHNQ 2.01.04-18 ga muvofiq olinadigan havo qarshiligi $m^2 \cdot \text{°C}/W$.

$$Q_{h.a.} = \frac{A_p \cdot V \cdot z \cdot h \cdot N_q}{R_{h.a.}} = \frac{1509,7 \cdot 4 \cdot 129 \cdot 24 \cdot 5}{0,15} = 623\,228,9 \text{ kWh}/m^3 \text{ yil.}$$



Amaldagi issiqlik sarfi miqdori quydagicha bo'ladi.


$$Q_{um}^I = 131\,987,3 + 158\,288,5 + 22\,728,6 + 39\,222,7 + 37\,588,4 + 623\,228,9 = 1\,013\,044,66 \text{ kWh}/m^2.$$

Yuqoridagi formulardan foydalanib tadqiqot ob'ektlaridan yo'qotilayotgan issiqlik miqdori aniqlandi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.



Tadqiqot ob'ektlarining gabarit o'lchamlaridan kelib chiqqan holda umumiy issiqlik sarflari QMQ 2.01.04 ga muvofiq issiqlik himoyasining darajalari bo'yicha konstruksiya turiga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

janubiy-sharqqa qaragan 16, 22, 23, 25 uylarniki 11-rasmda keltirilgan;





11-rasm. Janubiy-sharqqa qaragan 16, 22, 23, 25 uylarning amaldagi issiqlik sarfi hamda issiqlik himoyasiga tafovuti shimoliy-sharqqa qaragan 17, 21, 24 26 uylarniki 12-rasmda keltirilgan;



12-rasm. Shimoliy-sharqqa qaragan 17, 21, 24 26 uylarning amaldagi issiqlik sarfi hamda issiqlik himoyasiga tafovuti

Tadqiqot ob'ektlaridan olingan natijalarning ba'tafsil qiymatlari quydagi 2-jadvalda keltirilgan.

Amalda yillik issiqlik sarfi 1 665 771 kWh/m² ni tashkil etib, issiqlik himoyasining ikkinchi darajasini ya'ni 974 ming 525 kWh/m² ni ta'minlanganda 42 % iqtisodga erishish mumkinligini ko'rish mumkin (ba'atafsil 2-jadvalda keltirilgan).

2-jadval

Issiqlik himoyasining darajalari bo'yicha yillik umumiy issiqlik sarflari Q_I, Q_{II}, Q_{III}, va Q^f larning xisoblari

Ufqqa qarab joylashishi	Devor	Deraza	Eshik	Orayopma	Tomyopma	Havo almash.	Umumiy yillik sarfi
	Yillik umumiy issiqlik sarfi Q_I kWh/m² yil					Q _{h.a.} kW/m ³ yil	Q ^I _{um.} kWh/m ²
	131 987,3	158 288,5	22 728,6	39 222,7	37 588,4		
	Yillik umumiy issiqlik sarfi Q_{II} kWh/m² yil					623 228,93	Q ^{II} _{um.} kWh/m ²
Janubiy-sharqqa 16, 22, 23, 25 uylar	107 989,61	158 288,55	22 728,61	32 218,71	30 070,8		974 525,20
	Yillik umumiy issiqlik sarfi Q_{III} kWh/m² yil						Q ^{III} _{um.} kWh/m ²
	91 375,82	139 821,55	20 076,94	28 191,37	24 381,7		927 076,34
	Yillik umumiy issiqlik sarfi Q_f kWh/m² yil						Q ^f _{um.} kWh/m ²
	359 841,31	164 029,58	22 728,61	187 757,61	308 185,5	1 665 771,51	
	Yillik umumiy issiqlik sarfi Q_I kWh/m² yil					Q _{h.a.} kW/m ³ yil	Q ^I _{um.} kWh/m ²
	65993,65	79144,27	11364,31	19611,39	18794,2		
Shimoliy-sharqqa 17, 21, 24 26 uylar	Yillik umumiy issiqlik sarfi Q_{II} kWh/m² yil					311 614,46	Q ^{II} _{um.} kWh/m ²
	53994,80	79144,27	11364,31	16109,35	15035,4		487 262,60
	Yillik umumiy issiqlik sarfi Q_{III} kWh/m² yil						Q ^{III} _{um.} kWh/m ²
	45687,91	69910,78	10038,47	14095,69	12190,9		463 538,17
Yillik umumiy issiqlik sarfi Q_f kWh/m² yil					Q ^f _{um.} kWh/m ²		
	179920,65	82014,79	11364,31	93878,80	154092,7	832 885,76	

Bunda, 1-jadvalga ko'ra 1 m² pol yuzasi uchun sarflanayotgan issiqlik miqdorini (4)-formulaga asosan aniqlanadi.

$$Q_p = \frac{Q_{um}^f}{(A_p \cdot H_q)}, \quad (4)$$

Bu yerda: Q^f_{um.} – amaldagi umumiy issiqlik sarfi kWh/m²; A_p – pol yuzasi m²; H_q – bino qavatlar soni. Tadqiqot ob'ekti uchun 1 m² yuzasiga quydagicha bo'ladi.

$$Q_p = \frac{Q_{um}^f}{(A_p \cdot H_q)} = \frac{1665771,51}{1509,7 \cdot 5} = 220,7 \frac{kWh}{m^2}$$

Tadqiqot ob'ektidagi turar-joylarning umumiy yuzasidan kelib chiqqan holda hudud kesimida issiqlik sarfini quyidagi (5) formula orqali hisoblanadi.

$$Q_h = A_{um}^h \cdot Q_p, \quad (5)$$

Bu yerda: A^h_{um} – turar-joy hududidagi ko'p kvartirali uylarining umumiy pol yuzasi m²; Bunda,

$$A_{um}^h = A_p \cdot n, \quad (6)$$

A_p – pol yuzasi m²; n – ko'p kvartirali uylarning soni; Q_p – yuqoridagi (4)-formuladagi 1 m² pol yuzasi uchun sarflanayotgan issiqlik miqdori kWh/m².

$$Q_h = A_{um}^h \cdot Q_p = 45291 \cdot 220,7 = 9 995 723,7 kW$$

Demak, yiliga tadqiqot obyektidan 9,995,72 MWh/m² issiqlik energiyasi sarflanadi, natijada ushbu energiyani ishlab chiqish uchun sarflanadigan tabiiy gaz miqdorini hisoblash kerak. Tabiiy gazning 1 m³ uchun solishtirma issiqlik yonishi


41 MDj/kg ya'ni 11,38 kW·h ni, bunda amalda issiqlik energyasi sarfi 9 995 723,7 kWh/m² dan ajaraladigan CO₂ miqdori 6 797,09 tonnani tashkil etadi (ba'tafsil 3-jadvalda keltirilgan).

3-jadval:

Turar-joy hududi kesimida tabiiy gaz va issiq xona gazlari tejalishi


№	Shartli birligi	Issiqlik himoyasining darajalari			Amalda issiqlik energyasi sarfi
		Q ^I _h . kWh/m ²	Q ^{II} _h . kWh/m ²	Q ^{III} _h . kWh/m ²	Q ^f _h . kWh/m ²
		6 078 267,94	5 847 151,21	5 562 458,03	9 995 723,7
1	Q ^f _{h,f} . kWh/m ² ga farqi (qisqarishi)	3 916 361,14	4 147 477,88	4 432 171,06	
2	Tabiiy gaz ming m ³	534,12	513,81	488,79	878,36
3	Q ^f _{h,f} . kWh/m ² ga farqi (qisqarishi)	344,14	364,45	389,47	
4	Issiqlik xona gazlari CO ₂ tonna	4133,22	3976,06	3782,47	6 797,09
5	Q ^f _{h,f} . kWh/m ² ga farqi (qisqarishi)	2663,12	2820,28	3013,87	

Bunda ko'rinib turibtki optimal issiqlik himoyasi darajasini aniqlab olish muhim hisoblanadi. Tadqiqot ob'ektini renovastya qilish uchun QMQ 2.01.04-19 ga muvofiq issiqlik himoyasining 3 ta darajasi keltirilgan bo'lib, ushbu darajalarning eng optimalini tanlash maqsadida ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish orqali aniqlanadi (13-rasm).



13-rasm. Fisher usulida issiqlik himoyasining 1 chi darajasi va 2 chi darajalari o'rtasidagi bog'liqlikligi


Issiqlik himoyasining 2 chi va 3 chi darajalarining o'rtasidagi bog'liqlik 14-rasmda keltirilgan.



14-rasm. Fisher usulida issiqlik himoyasining 2 chi darajasi va 3 chi darajalari o'rtasidagi bog'liqlikligi

Umumiy issiqlik sarfi hamda issiqlik ximoyasining 2 chi darajasi o'rtasidagi bog'liqlikligi 15-rasmda hamda natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

Qf ni Qf tak ga bog'liqligi		
Korellatsiya koeff.		0,9993
Konstruksiyalar soni	n	6
Fisher	z	3,9535
Standart xatolik	se	0,5774
Ishonch oraligi	c 95	1,9600
quyi 95 % chegarasi zl	zl	2,8219
yuqori 95% chegarasi zu	zu	5,0851
Fisher (FISHERINV). quyi 95 % chegarasi rl	rl	0,9929



15-rasm. Fisher usulida Qf va issiqlik himoyasining 2 chi darajasi o'rtasidagi bog'liqlikligi

4-jadval:

Issiqlik himoyasining darajalari bo'yicha Q_I , Q_{II} , Q_{III} , Q^f va Q^f_{tak} larning yillik umumiy issiqlik sarflari

Konstruksiya nomi	Q_I kWh/m ² yil	Q_{II} kWh/m ² yil	Q_{III} kWh/m ² yil	Q^f kWh/m ² yil	Q^f_{tak} kWh/m ² yil
Janubiy-sharqqa qaragan 16, 22, 23, 25 uylar					
Devor	131 987,30	107 989,61	91 375,82	359 841,31	107 989,61
Deraza	158 288,5	158 288,55	139 821,55	164 029,58	158 288,55
Eshik	22 728,6	22 728,61	20 076,94	22 728,61	22 728,61
Orayopma	39 222,7	32 218,71	28 191,37	187 757,61	32 218,71
Tomyopma	37 588,4	30 070,8	24 381,7	308 185,5	30 070,8
Havo almash. $Q_{h.a.}$ kWh/m³ yil	623 228,93				
Umumiy yillik sarfi	1 013 044,66	974 525,20	927 076,34	1 665 771,51	974 525,20
Shimoliy-sharqqa qaragan 17, 21, 24 26 uylar					
Devor	65993,65	53994,80	45687,91	179920,65	53994,80
Deraza	79144,27	79144,27	69910,78	82014,79	79144,27
Eshik	11364,31	11364,31	10038,47	11364,31	11364,31
Orayopma	19611,39	16109,35	14095,69	93878,80	16109,35
Tomyopma	18794,2	15035,4	12190,9	154092,7	15035,4
Havo almash. $Q_{h.a.}$ kWh/m³ yil	311 614,46				
Umumiy yillik sarfi	506 522,33	487 262,60	463 538,17	832 885,76	487 262,60

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tadqiqot ob'ekti uchun issiqlik himoyasining 2-chi darajasi eng maqbul ekanligini ko'rish mumkin.


Dissertatsiyaning «**Shahar turar joy hududlaridagi binolardan yo'qotiladigan issilik energiyasini tejash bo'yicha takliflar**» nomli uchinchi bobida turar joy hududlaridagi binolarning energiya tejamliligini oshirish bo'yicha takliflar, binolarni energiya auditdan o'tkazish ketma-ketligi, binolarni energiya samaradorlik bo'yicha pasportlashtirish keltirilgan.

O'zbekiston 2016 yil 19 aprelda Parij kelishuvini imzolagan hamda 2018 yil 21 noyabrda ushbu kelishuvni ratifikatsiya qilgan. O'zbekistonga Parij kelishuvi


doirasida iqlim o'zgarishiga ta'sirni kamaytirish, tabiiy resurslarni samarali boshqarish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy qilish, moslashish strategiyalari kabi vazifalar yuklangan (16-rasm).

Konstruktiv jihatdan tashqi havo bilan aloqaga kiruvchi konstruksiyalarni issiqlik himoyasini ta'minlash orqali yillik issiqlik sarfi **1 665 771 kWh/m²** dan **974 525 kWh/m²**ni ta'minlanganda **42 %** iqtisodga erishilishi ko'rildi.


Issiqlik himoyasining 2-darajasini ta'minlash uchun hisob kitoblarga ko'ra devor konstruksiyasiga 60 mm, tom konstruksiyasiga 120 mm qalinlikdagi issiqlik o'tkazuvchanligi 0,035 W/m °C dan kam bo'lmagan issiqlik himoyasi material kerak bo'ladi (17-rasm).



16-rasm. O'zbekistonning 2010 yildan 2030 yilgacha YaIM o'sishi va CO₂ ni qisqartirish istiqbollari



$$\delta = 60 \text{ mm}, \lambda = 0,035 \text{ W/m } ^\circ\text{C}$$



$$\delta = 120 \text{ mm}, \lambda = 0,035 \text{ c}$$

17-rasm. Devor hamda tom konstruksiyalarining issiqlik himoyasi materiallari

Bitta ko‘p kvartirali uy uchun devor konstruksiyasini issiqlik izolyatsiyasi bilan qoplash harajati uchun 1 807 879 ming so‘mni, tom konstruksiyasini issiqlik izolyatsiyasi bilan qoplash harajati uchun 229 469 ming so‘mni tashkil etadi. Tadqiqot ob‘ekti kesimida esa 12 655 158 ming so‘mni tashkil etadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 16 apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-son Qaroriga muvofiq aholiga elektr energiyasi hamda tabiiy gaz tariflari belgilangan².

Ushbu qarorning 1-ilovasiga ko‘ra elektr energiyasi hamda tabiiy gaz tarifi quyidagicha: Tabiiy gaz 1 m³ ga – 650 so‘m.

Mazkur tariflar qarordan aholi uchun eng belgilangan qiymatlarda olingan. Bunda mavsum yoki aholi tabiiy gaz bilan ta‘minlanmaganligi uchun belgilangan qiymatlar olinmagan.

Optimal issiqlik himoyasi sifatida issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi qo‘llanilishi hisobiga 4-jadvalga muvofiq 364,45 ming m³ tabiiy gaz tejalishini inobatga olsak, u holda tejalgan resurs qiymatini quyidagi (7) formula yordamida aniqlab olinadi.

$$S = T_t \cdot T_g \quad (7)$$

Bu yerda: T_t – 3-jadvalning issiqlik himoyasining ikkinchi darajasidan olinadigan tejalgan tabiiy gaz miqdori ming m³; T_g – tabiiy gaz tarf naxri so‘m.

$$S = T_t \cdot T_g = 364453 \cdot 650 = 236\,894\,450 \text{ so‘m.}$$

Bunda tejalgan summa 236 894 ming so‘mni tashkil etadi.

Iqtisod qilingan tabiiy resurslarning qiymatidan energiya tejamkorlikni ta‘minlash uchun sarflangan mablag‘larni oqlash imkoniyatini ko‘rib chiqish mumkin.

Yangi ko‘p qavatli uylar qurilishini loyihalashtirishda ularning tomlari bo‘sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o‘rnatish belgilangan bo‘lib, mavjud ko‘p qavatli uylarda o‘rnatishga amalda talablar mavjud emas³.

Tadqiqot ob‘ektining 1509,76 m² tom yuzasining 50 % ga 755 m² ga qo‘yosh panellari o‘rnatilsa unda ular quyidagicha hisoblanadi.

200 W — panelning pasportda ko‘rsatilgan maksimal quvvati, foydalanish samaradorligi (KPD) 20% va yoritish quvvati 1000 W bo‘lgan holda, Toshkentda iyul oyida soat 11:00–12:00 oralig‘ida maksimal quyosh radiatsiyasi — 782 + 140 = 922 W/m² ni tashkil etadi.

Toshkentda sutka davomida o‘rtacha yillik quyosh radiatsiyasi yig‘indisi — 10,77 + 5,84 = 16,61 MJ/(m²·sut) = 4,61 kWh/(m²·sut). Yillik quyosh radiatsiyasining umumiy yig‘indisi — 4,61 kWh/(m²·sut) × 365 sutka = 1683 kWh/m². Maydoni 1 m², 20% samaradorlikdagi quyosh paneli orqali yil davomida ishlab chiqariladigan energiya miqdori — 1683 kWh/m² × 0,2 = 336,6 kWh/m².

$$336,6 \text{ kWh/m}^2 \times 755 \text{ m}^2 = 254\,133 \text{ kWh.}$$

$$254\,133 \times 1000 = 254\,133\,000 \text{ so‘m.}$$

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 16 apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-son Qarori.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-son Qarori (<https://lex.uz/docs/6385716>).

O‘zini oqlash muddati quyosh panellarini o‘rnatish xarajatlarining turli omillarga bog‘liq bo‘lib, taxminan quyidagicha bo‘ladi:

Quyosh panellari narxi 1 kW uchun: o‘rtacha 10,9 million so‘mdan 12 million so‘mni tashkil etadi. Bunda 755 m² maydonga o‘rnatilgan quyosh panellarining umumiy quvvati: taxminan 151 kW (1 m² maydonga 0,2 kW quvvatdan).


Umumiy o‘rnatish xarajatlari: 151 kW × 10,9 million so‘m = 1 645 900 000 so‘m.

O‘zini oqlash muddati quyidagicha hisoblanadi: 1 645 900 000 so‘m / 254 133 000 so‘m/yil ≈ 6,5 yil ba’tafsil 18-rasmda keltirilgan.

O‘zbekistonda quyosh panellarini o‘rnatgan fuqarolar uchun qator imtiyozlar mavjud, masalan, yer va mol-mulk solig‘idan ozod qilish, ortiqcha ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlatga 1 000 so‘mdan sotish imkoniyati va boshqalar mavjud.

Jahonda binolarni energiya auditdan o‘tkazish bo‘yicha ko‘plab normativ hujjatlar va standartlar qabul qilingan.

Mamlakatimizda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 19 oktabrdagi “Yoqilg‘i-energetika resurslari iste‘molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste‘molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida”gi 690-son qarorining 2-ilovasi bilan “Bino va inshootlarni energiya iste‘molini energiya auditidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” nizom tasdiqlangan⁴.



18-rasm. Quyosh panellarining o‘zini oqlash ko‘rsatkichi

Energiya audit (energy audit) – belgilangan energetik audit doirasida energiyani qo‘llash va iste‘mol qilishni tizimli tahlil qilish bo‘lib, bu jarayon energetik natijalarni yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash, miqdoriy baholash va hisobot materiallarida taqdim etishni maqsad qilishi zarur hisoblanadi⁵.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 19 oktabrdagi “Yoqilg‘i-energetika resurslari iste‘molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste‘molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida”gi 690-son Qarori.


⁵ ГОСТ Р 57576— 2017 (ISO 50002:2014, MOD) Системы энергетического менеджмента аудит энергетическим Требования и руководство по применению (ISO 50002:2014 «Energy audits. Requirements with guidance for use», MOD).

Energetik audit prinsiplarga muvofiq ravishda o'tkazilishi bunda ular 19-rasmdagi sxemaga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Binolarning energiya tejamkorlik pasporti hamda sertifikatlash 20-rasmda keltirilganlarga ko'ra amalga oshiriladi.

Toshkent shahridagi 10 ta issiqlik manbalarining kunlik gaz ist'emoli o'rtacha 4,5 mln. m³ tabiiy gazni tashkil etadi. Normativ isitish kuni Toshkent shahri uchun 129 kun ekanligini inobatga olinsa, bir mavsum uchun o'rtacha tabiiy gaz sarfi 580,5 mln. m³ ni yoki 1042,0 ming tonna CO₂ ni tashkil etadi.

Turar-joy hududlaridagi binolarni energiya samaradorlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bir vaqtda ularning monitoring tizimini shakllantirish muhim masaladir. Monitoring qilish natijasida kelgusida samaradorlikka erish yuzasida oshiraladigan rejarlarni hamda davlat dasturlarini aniq shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Monitoring tizimini to'g'ri va samarali shakllantirish muhim hisoblanib, uni ikki bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.




19-rasm. Energetik audit prinsiplarga muvofiq ravishda o'tkazilishi

Birinchi bosqichda yangi quriladigan binolar uchun loyiha hujjatlarini ekspertiza qilish orqali amalga oshirish mumkin (21a-rasm).


Ikkinchi bosqichda mavjud binolarni rekonstruksiya qilish orqali amalga oshirishda mavjud binolarni energiya auditdan o'tkazish muhim hisoblanadi.

Audit natijalari asosida amaldagi texnik normativ hujjatlarga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib ularni amalga oshirish usullari ekspertiza qilinish kerak bo'ladi. Ekspertizasi muvofaqqiyatli o'tgan audit xulosalaridan so'ng xulosalarda keltirilgan chora-tadbirlarni qullash hamda mavjud binolarni rekonstruksiya qilish bo'yicha loyiha hujjatlari ishlab chiqiladi. Bunda binolarni energiya samaradorligini monitoring qilish mexanizmi amalga oshiriladi (21b-rasm).



BINONING ENERGIYA SAMARADORLIK SERTIFIKATI												
Iqlimi	Joylashgan hududi	Og'ah kattaligi (%)	Dastlab									
Energiya samaradorlik klassi												
Yuqori energiya samaradorlik												
A	-40 dan -26 gacha											
B	-25 dan -11 gacha											
C	-10 dan 4 gacha	Ok*										
D	5 dan 14 gacha											
E	15 dan 25 gacha											
F	25 dan ko'proq											
Energiya samarador emas												
Normativ energiya istemoli		Ok*										
Qayta tiklanuvchi energiya manbalarisiz		kWh/(m2 a)										
Umumiy ishlatilgan birlamchi energiya		kWh/(m2 a)										
CO2 Qisqartirish		kg/(m2 a)										
Ishlab chiqarilgan energiya		kWh/(m2 a)										
Energiyaning yakuniy istemoli		kWh/(m2 a)										
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi		%										
Energiya ehtiyoji (istish, sovutish, yoritish) kWh/(m2 a)		Istish va sovutish muddati										
O'chlanayotgan bino	(Ok*)	Mavsum	Foydalanish vaqti (h)									
		Yoz	O'rtacha tashqi havo harorati									
0,5	0,75	1	1,25	1,5	1,75	2	2,25	2,5	2,75	3	Qish	
Ok*=											O'rtacha qiymati	
Qurilgan yoki so'ngi renovatsiya bo'lgan yili											Bino turi	
Umumiy yuzasi m2											Joylashgan manzili	
Foydalanish yuzasi m2											Kadastri raqami	
Qavatlar soni												
Bino hajmi (umumiy yuzadan) m3												
Sertifikat raqami				Berilgan sana				Imzo				

20-rasm. Binolarning energiya tejamkorlik pasportining tarkibi



21-rasm. Binolarni energiya samaradorligini monitoring qilish tizimi

Turar-joy hududlaridagi binolarning energiya samardorligini monitoring qilish orqali respublika miqyosida amalga oshirilayotgan qurilishlardagi energiyaning tejalishini aniq shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida uzoq yillik energiya tejamkorlik strategiyalarini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

“Shahar turar-joy hududlaridagi binolardan yo‘qotiladigan issiqlik energiyasini tejash usullarini takomillashtirish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi hulosalar taqdim etiladi:

1. Germaniya va AQSh kabi davlatlar binolar ichki yuzasining 1 m^2 uchun aniq bir ko‘rsatkichlari belgilagan bo‘lib, binolarni energiya samardorlik ko‘rsatkichlarini baholash tizimini joriy etish kerakligi aniqlandi.

2. Binolardan amalda yo‘qotilayotgan yillik issiqlik sarfi 1 mln. 665 ming 771 kw/m^2 ni tashkil etishi, bunda issiqlik himoyasining ikkinchi darajasini qo‘llash orqali 974 ming 525 kw/m^2 ni yoki 42% iqtisodga erishishi nazariy asoslandi.

3. Toshkent shahri, Foziltepa ko‘chasi, 15-mavzeda joylashgan turar-joy binolarining amalda yo‘qotilayotgan issiqlik sarfi miqdori $9\,995\,723,7 \text{ kW} / 11,38 \text{ kW}\cdot\text{h}=878\,358,85 \text{ m}^3$ yoki $878,36$ ming m^3 ni, tashkil etishi, bunda ushbu issiqlik energiyasidan ajaraladigan $6\,797,09$ tonna CO_2 issiq xona gazlari atmosferaga tashlanayotganligi nazariy hisob kitoblar orqali aniqlandi.

4. Turar-joy massivlaridagi binolarni issiqlik darajasini ta‘minlash orqali yillik $4147,48 \text{ MVt}$ soat issiqlik energiyasini tejash yoki tom qismida qo‘yosh panellari o‘rnatilishi natijasida yiliga $2174,0 \text{ MVt}$ soat energiya ishlab chiqarishi, shuningdek yiliga $7577,83$ tonna CO_2 issiqxona gazlari qisqartirilishiga erishilishi isbotlandi.

5. Prognozga ko‘ra 2030 yilgacha YaIM o‘sishi tahminan $125,0$ mlrd. dollarni tashkil etib, natijada 35% ga CO_2 qisqarishiga erishilishi kutilmoqda.

6. Bitta ko‘p kvartirali uy uchun devor konstruksiyasini issiqlik izolyatsiyasi bilan qoplash harajati uchun 1 mlrd. 807 mln. 879 ming so‘mni, tom konstruksiyasini issiqlik izolyatsiyasi bilan qoplash harajati uchun 229 mln. 469 ming so‘mni shuningdek, tadqiqot ob‘ekti kesimida 12 mlrd. 655 mln. 158 ming so‘mni tashkil etishi aniqlandi.

Hozirgi kunda binolarni energiya samardorlik sertifikatini hamda monitoring tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.26/04.07.2023.Т.11.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКОМ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ДУСАТОВ БОТИР ЭШДАВЛАТ УГЛИ

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ЭНЕРГОСБРЕЖЕНИЯ
ПОТЕРИ ТЕПЛОВОЙ ЭНЕРГИИ В ЗДАНИЯХ НА ГОРОДСКИХ
ЖИЛЫХ ТЕРРИТОРИЯХ**

**18.00.02- «Районирование. Градостроительство. Планирование сельских жилых
объектов. Ландшафтная архитектура. Архитектура зданий и сооружений»
05.09.01 – «Строительные конструкции, здания и сооружения»**

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована B2024.4.PhD/T5185 высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Ташкентском архитектурно-строительном университете. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице научного совета (<http://taqu.uz/interaktiv-xizmatlar/taqu-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>), а также на Информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Хотамов Асадулла Тоштемирович
доктор технических наук, профессор
Махмудов Саид Махмудович
кандидат технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ибрагимов Бахром Тошпулатович
доктор технических наук, профессор
Хасанов Азамат Озодович
доктор философии по архитектуре, доцент

Ведущая организация:

“УзШахарсозликЛИТИ” ДМ

Защита диссертации состоится «10» июня 2025 года в «15⁰⁰» часов на заседании Научного совета PhD 26/04.07.2023.Т.11.03 при Ташкентском архитектурно-строительном институте. (Адрес: 100194, город Ташкент, Юнусабадский район улица Янги шаҳар, дом 9. Актовый зал Ташкентский архитектурно-строительном университет. Тел: +998 (55) 508 02 56. e-mail: devon@taqu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентский архитектурно-строительном университет (зарегистрирована за номером 152). (Адрес: 100194, город Ташкент, ул. Янги шаҳар, дом 9. Тел: +998 (71) 142 65 85,

Автореферат диссертации представлен “26” мая 2025 года. (“1” “мая” 2025 реестрный протокол № 1(6)/2025-3)

Ш.Х.Юнусов

Председатель разового научного совета по присуждению учёных степеней, доктор архитектуры, доцент

Ф.А. Абдихалилов

Учёный секретарь разового научного совета по присуждению учёных степеней, PhD., доцент

А.С. Ювмитов

Председатель разового научного семинара при Учёном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. На фоне ежегодного роста мирового спроса на энергетические ресурсы, в условиях глобальных климатических изменений особое внимание во всём мире уделяется повышению энергоэффективности зданий, рациональному использованию энергии, затрачиваемой на отопление, и её экономии. В настоящее время общемировое потребление энергии достигло 14 400 миллионов тонн нефтяного эквивалента (мт.н.э), что на 45% выше по сравнению с 2000 годом и в 16 раз выше по сравнению с 1900 годом. В 2022 году тепловая энергия составила почти половину от общего мирового потребления энергии, а также 38% от общего CO₂. Ожидается, что в период с 2023 по 2028 годы потребление тепловой энергии вырастет более чем на 40%, в связи с чем основное внимание в строительной отрасли уделяется непрерывному развитию новых энергоэффективных решений.

В мире ведутся научные исследования, направленные на обеспечение энергоэффективности зданий, их паспортизацию, внедрение и предоставление сертификатов энергоэффективности, совершенствование проведения энергетического аудита, разработку и внедрение энергоэффективных конструктивных решений. В данном направлении приоритетными считаются исследования, направленные на обеспечение энергосбережения в жилых массивах, снижение теплотерь через конструкции зданий, а также уменьшение выбросов угарного газа в атмосферу за счёт сокращения объёмов производства тепла. Вместе с тем, проведение энергетического аудита, сертификация зданий жилых массивов и создание системы мониторинга по энергоэффективности являются актуальными задачами на сегодняшний день.

